

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2021- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 027,7** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **3 365,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,6** %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

15 027,7 mlrd.
so'm

117,6 %

3 365,2 mlrd.
so'mga

•Xizmatlar hajmi

•O'sish sur'ati

•Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **838,1** mlrd. so'mga o'sdi va **2 406,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **584,8** mlrd. so'mga o'sgan va **1 797,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning avgust oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **684,6** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning avgust oyiga nisbatan 2020- yil sentabr oyida xizmatlar hajmi **643,8** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	15 027,7	117,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	463,8	132,1
Moliyaviy xizmatlar	2 075,2	119,4
Transport xizmatlari	3 700,0	115,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 477,7	113,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	555,5	111,0
Savdo xizmatlari	4 940,3	110,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	488,2	130,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	338,8	137,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	293,0	145,6
Ijara xizmatlari	453,1	122,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	312,3	118,7
Shaxsiy xizmatlar	431,5	124,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	542,7	131,3
Boshqa xizmatlar	433,3	124,7

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **32,9 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**13,8 %**), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlarida (**3,7 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,9 %**ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **34,0 %**ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,5 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**45,6 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**37,5 %**), aloqa va axborotlashtirishda (**32,1 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**31,3 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**30,6 %**), shaxsiy xizmatlarda (**24,8 %**), ijara xizmatlarida (**22,3 %**), shuningdek, moliyaviy xizmatlarda (**19,4 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarida (**10,9 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, %da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **135,9 %**.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **25,1 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,9** %ni tashkil etib, bu esa **4 940,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **3 963,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **34,0** %iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

3 963,5

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

4 940,3

102,4

O'sish sur'ati, %da

110,9

2020- y. yanvar-sentabr




2021- y. yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **69,5 %**ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,3 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 075,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 710,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **13,8** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **14,6** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **365,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **19,4** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **135,9** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,1 %**ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **4,8 %**ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,0 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **7,8 %**.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,2 %**ga to'g'ri kelgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **463,8** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **132,1** %ni tashkil etgan.


Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **345,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **3,0** %iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **133,5** %ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **87,1** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da

**2020- y.
yanvar-sentabr**



**2021- y.
yanvar-sentabr**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **88,0** %ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **338,8 mlrd.** so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,3 %**ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati **137,5 %**ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **126,2** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-sentabr



2021- y. yanvar-sentabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **86,4** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-sentabr




Xizmatlar hajmi

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

O'sish sur'ati

2020- y.
Yanvar-sentabr



177,0 mlrd. so'm

1,5 %

74,9 %

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent viloyati *)	15 027,7	117,6	103,2
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	576,2	114,6	114,7
Olmaliq	1 052,5	118,4	98,8
Angren	953,1	113,5	100,9
Bekobod	703,8	114,5	100,8
Ohangaron	303,9	119,6	100,5
Chirchiq	1 219,3	117,2	101,1
Yangiyo'l	690,7	119,1	100,4
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	395,8	114,7	100,9
Ohangaron	227,5	112,5	100,4
Bekobod	426,0	111,7	100,5
Bo'stonliq	906,8	120,5	100,8
Bo'ka	409,1	115,8	101,0
Quyi Chirchiq	299,8	118,6	100,6

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Zangiota	1 494,5	127,5	101,0
Yuqori Chirchiq	593,1	117,1	101,1
Qibray	1 505,6	115,6	98,7
Parkent	585,6	118,9	101,3
Piskent	236,4	119,8	100,4
O'rta Chirchiq	524,7	116,8	100,6
Chinoz	418,3	113,3	100,3
Yangiyo'l	693,8	114,1	100,2
Toshkent	811,2	119,8	100,7


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi – **10,0 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **10,2 %**). Aksincha, eng past ko'rsatkichlar Ohangaron tumanida – **1,5 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **1,6 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 166,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,6** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 940,0** ming so'mga to'g'ri kelgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,6** %ni tashkil etgan.



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

31 897 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

4 893 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

118,1 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


62,2 %

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,2 %**, sanoat **18,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,5 %**ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,7 %**ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,4 %**ni, sanoat **19,0 %**ni, qurilish **7,8 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,8 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (45,8 %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 12,0 %ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,5 %ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,1 %ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,6 %ni tashkil etdi.

Savdo – 45,8

Boshqa turdagi xizmatlar – 32,0

Yashash va ovqatlanish – 12,0

Tashish va saqlash – 5,5

Sog'liqni saqlash – 2,6

Axborot va aloqa – 2,1


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **71,6 %**ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **57,6 %**ga to'g'ri keldi.

